

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MURADOVA MAFTUNA KOMILOVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PARTISIPATIV KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Muradova Maftuna Komilovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish..... 3

Мурадова Мафтунa Комиловна

Развития партисипативной компетентности будущих учителей 25

Muradova Maftuna Komilovna

Developing participative competence in future teachers 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MURADOVA MAFTUNA KOMILOVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PARTISIPATIV KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6136 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namspi.uz) va «ZiyoNET» ta'lim portali (www.ziynet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azimova Ziyodaxon Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Lutfullayev Pulatxon Muxibullayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "6" 12 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz).


Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (078 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (998) 69-211-11-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» 11 da tarqatildi.
(2025-yil «24» 11 dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).




M.R. Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, kimyo fanlari doktori (DSc), dotsent


S.X. Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent


M.A. Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng ommalashgan sohalaridan biri sifatida “kelajak xazinasi” hisoblangan ta’lim muhim ustuvorlik kasb etadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, etakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Dunyoda oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, talabalarda tayanch hayotiy (komandada ishlash, liderlik, tadbirkorlik, kommunikativlik va h.k.) kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari hamda moslashuvchan (Soft-skills) va maxsus (Hard-skills) ko‘nikmalarni tarkib toptirish modellari (masalan, “ko‘nikma – harakat”) va samarali usullarini (qayta aloqani izlash va so‘rash; boshqalar tajribasini o‘rganish va mentvorking, keyslarni yechish va h.k.) ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya berish jarayonlarini zamonaviy talablar darajasida isloh qilish, ta’limiy munosabatlarni samarali tashkil etish, pedagog va ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilishga doir faoliyatining samarali shakllarini takomillashtirishga keng e’tibor qaratilmoqda. “Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish¹ ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonning modeli va pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda hamkorlik pedagogikasi, kommunikativ kompetentlik, samarali muloqot, shaxslararo munosabatlar, shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish, talabalarda o'zaro do'stona hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik jamoani partisipativ boshqarishning ijtimoiy va psixologik jihatlari Sh.A.Abdullayeva, N.N.Azizxo'jayeva, U.X.Nurmatov, Q.Q.Inaqov, X.A.Yo'lbarsova, F.O.Mirzayeva, M.M.Abdullayeva, B.X.Xodjayev, R.Safarova² kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridan S.L.Suvorova, E.B.Bystrai, A.N.Saxanova, A.L.Gavrikov, N.S.Shkitina, N.S.Shkitina, N.S.Kasatkina, V.V.Danilova, P.D.Uprugina³ kabilarning tadqiqotlarida partisipatsiya, empatik-partisipativ tayyorgarlik, texnologik-partisipativlik, partisipativ kompetentlik ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, faoliyatda subyektlarning keng ishtirok etishi, talabalarni partisipativ tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga partisipativ tayyorgarligi kabi mazmunlarda yoritib berilgan.

Xorijlik olimlardan Levi Bryul, A.Louin, R.Nyushell, M.Sashkin, E.A.Lokk, P.Karbenell, M.M.Muronga⁴ kabi olimlar partisipativlik, uning mazmuni, partisipativ boshqaruvning ijtimoiy-etnik xususiyatlari, boshqaruvga ishchilarni jalb etish, partisipativ qarorlar qabul qilishning o'ziga xosliklari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan

² Абдуллаева Ш.А. Ҳамкорлик педагогикаси. – Т.: Фан ва технология, 2017. – 178 б. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби талабаларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2016. – 314 б. Сафарова Р., Мусаев У.Қ., Мусаев П. ва бошқ. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005. – 255 б.

³ Суворова С.Л. Теоретико-методологические основы формирования коммуникативно-дискурсивной культуры будущих учителей. Челябинск, 2004. Быстрай, Е.Б. Межкультурно-partisipativный подход как теоретико-методологическая стратегия формирования межкультурной педагогической компетентности / Е.Б. Быстрай // Вестник ОГУ. - 2003. - С. 78-Саханова, А.Н. Децентрализация и partisipativность в системе государственного управления / А.Н. Саханова // Казахстан-Спектр. - 2003. № 3. - С. 28-34.

⁴ Sashkin, Marshall. Participative management remains an ethical imperative. *Organizational Dynamics*. - 1986. - Vol.14, Issue 4. - Pp. 62-75. Locke, E.A. Comments on Neider: The issue of interpretation of experiments. *Organizational Behavior and Human Performance*. - 1981. Vol. 28, Issue 3. - Pp. 425-430. Locke, E.A. Comments on Neider: The issue of interpretation of experiments. *Organizational Behavior and Human Performance*. - 1981. Vol. 28, Issue 3. - Pp. 425-430.

davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq B.M-24 “Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari” mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikning tuzilishi, komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik-psixologik fanlarning partisipativ kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil etish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Nukus davlat pedagogika universitetining 321 nafar respondent-talabalari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so‘rov, suhbat, anketa, test, modellashtirish, pedagogik eksperiment va natijalarni matematik-statistik va qayta ishlash metodlaridan, “O‘quv motivatsiyasi-ning yo‘nalganligini tashxis qilish” metodikasi, Rokichning “Qadriyatga yo‘nalganlikni aniqlash” bo‘yicha moslashtirilgan so‘rovnomasi, “Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash” so‘rovnomasi, “Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi” metodikasi, Refleksivlik darajasini aniqlash metodikasidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning konseptual asoslari motivatsion, mazmunli-faoliyatli, shaxsiy-kommunikativ va refleksiv-baholovchi komponentlari hamda pedagogik liderlik, refleksiv pozitsiya, hamkorlik pedagogikasi kabi aloqador jihatlarining o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi va qayta aloqasi dinamikligi barqarorligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

pedagogik-psixologik fanlarning bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari o‘quv modullari orasida ichki integratsiya barqarorligini hisobga olish, bunda o‘quv mavzulari mazmuniga umumiy yo‘nalishni ko‘rsatuvchi xususiy va pedagogik ta’sir vositalarini muvofiqlashtiruvchi, o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi umumiy tushunchalar o‘rtasidagi bevosita aloqadorlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modeli motivatsion-jarayonli, faoliyatli, natijaviy bloklarning o‘zaro sinxron aloqadorligi o‘zgarishlarni hisobga olish hamda mazkur jarayonda insonparvarlik, madaniy

an'analarni hisobga olish, shaxs va ta'limga qadriyatli munosabatda bo'lish, tarbiyaning ijtimoiy sharoitga mosligi, dialogizm va paritet tamoyillarini tatbiq etish imkoniyatini kengaytirish asosida takomillashtirilgan.

partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari shaxslararo munosabatga kirishish madaniyatini tarkib toptirish orqali ijobiy ta'sir etish, ijtimoiy-perseptiv ko'nikmalarni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy izlanuvchan faoliyatga jalb etish, amaliylik va ijodiy yo'nalganlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

“Umumiy pedagogika” fanining “Pedagogik mahorat” moduli bo'yicha rivojlantiruvchi trening dasturi ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot metodologik bazasining takomillashtirilganligi, pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari va amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi; keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “partisipativ kompetentlik” tushunchasining mazmun-mohiyatining ochib berilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining komponentlari, mezon va ko'rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni yoritib berilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va pedagogik-psixologik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning belgilab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga pedagogik-psixologik fanlar imkoniyatlarining aniqlashtirilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modelining ishlab chiqilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirilganligi, talabalarni loyihaviy faoliyatga jalb etish va ijodiy yo'naltirilgan rolli ishbilarmonlik o'yinini o'tkazish yo'llarining ko'rsatib berilganligi, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi mazmunining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning konseptual asoslarini motivatsion, mazmunli-faoliyatli, shaxsiy-kommunikativ va reflektiv-baholovchi komponentlari hamda pedagogik liderlik, reflektiv pozitsiya, hamkorlik pedagogikasi kabi aloqador jihatlarining o'zaro ta'sir ko'rsatishi va qayta aloqasi dinamikligi barqarorligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirish, pedagogik-psixologik fanlarning bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o'quv modullari orasida ichki integratsiya barqarorligini hisobga olish, bunda o'quv mavzulari mazmuniga umumiy yo'nalishni ko'rsatuvchi xususiy va pedagogik ta'sir vositalarini muvofiqlashtiruvchi, o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi umumiy tushunchalar o'rtasidagi bevosita aloqadorlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan pedagogika sohasi Davlat ta'lim standarti va 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 29-yanvardagi 02/01-01-34-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiya sohalari va standartlarini loyihalashga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modelini motivatsion-jarayonli, faoliyatli, natijaviy bloklarning o'zaro sinxron aloqadorligi o'zgarishlarni hisobga olish hamda mazkur jarayonda insonparvarlik, madaniy an'analarni hisobga olish, shaxs va ta'limga qadriyatli munosabatda bo'lish, tarbiyaning ijtimoiy sharoitga mosligi, dialogizm va paritet tamoyillarini tatbiq etish imkoniyatini kengaytirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan barcha bakalavriat yo'nalishlari uchun "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil 4-iyuldagi 11/3.1-son qarori, 2024/254U-394-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning partisipativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishga doir malakasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini shaxslararo munosabatga kirishish madaniyatini tarkib toptirish orqali ijobiy ta'sir etish, ijtimoiy-perseptiv ko'nikmalarni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy izlanuvchan faoliyatga jalb etish, amaliylik va ijodiy yo'nalganlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 29-yanvardagi 02/01-01-34-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning jamoaviy hamkorlikdagi ijodiy ishni tashkil etishga tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'limda partisipativ yondashuv va ta'limning partisipativ tashkil etishning me'yoriy-huquqiy va metodologik masalalari, oliy ta'lim muhitida pedagogik profilaktika: paradigmalari, kontseptual modeli va nazariy yondashuvlar hamda muammoning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

“Partisipatsiya” tushunchasi Levi Bryul tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, u partisipativlikni “ekzistensial naturalistik” qarashlarga asoslangan holda boshqa shaxs bilan yaxlit birlik tajribasi deb izohlaydi. Uning fikricha, partisipatsiya (ishtirok etish) “subyekt-subyekt munosabatlari” tushunchasi orqali anglashiladigan, samarali moslashuvni ta'minlaydigan qulay psixosomatik vaziyatni aks ettiradi.

Pedagogik jarayonni boshqarishga doir pedagogik tadqiqotlarda “partisipativlik” atamasi hukmronlik, majburlash va avtoritarizmning qarama-qarshiligi sifatida qaralib, birgalikda qaror qabul qilish, muammolarni birgalikda aniqlash va ularni hal qilish variantlari ishlab chiqish, hamkorlik uchun qulay psixologik iqlim yaratish sifatida anglashiladi.

Partisipativ tayyorlik bo'lajak o'qituvchi shaxsining moslashuvchanligi, bir-birini to'ldiruvchiligi, kommunikativligi va paritetligi (lotincha: paritas “tenglik”) kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

“Moslashuvchanlik” lingvistik nuqtai nazardan, (inglizcha “flexible”) “moslashuvchan”, “mos”, “oson moslasha oladigan” kabi mazmunni, “bir-birini to'ldirish” dialogik muloqotda faoliyat subyektlarining bir-birini to'ldirishi, qo'shimcha qilishi sifatida partisipativ tayyorlikning o'ziga xos xususiyati aks ettiradi.

Kommunikativlik ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va diagnostika qilishda ta'lim faoliyatining ajralmas qismi sifatida og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalarga asoslangan dialogik muloqotga ochiqlikni nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, kommunikativlik bir-birini fikrlarini to'ldirish asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim subyektlari bilan o'zaro tenglikka asoslangan

munosabatlarni o‘rnatish, muloqot natijasida birgalikdagi faoliyatni tashkil etish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Paritet – ta’lim faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish, diagnostika qilish va natijalarini tahlil qilish jarayonida shaxslarning tengligini tan olishdir. Mazkur tushunchaning (paritet) mavjudligini kasbiy ta’lim sohasidagi partisipativ yondashuv tadqiqotchilari (E.B.Bystrai va boshqalar) ham alohida ajratib ko‘rsatadilar. Bu esa, bizning tadqiqotimizda ushbu xususiyatdan foydalanishning to‘g‘riligini isbotlaydi.

Partisipativ faoliyat shaxslararo munosabatlar mazmunida o‘zaro birgalikdagi faoliyatda namoyon bo‘lar ekan, mazkur jarayon subyekt-subyekt munosabatlarini ijtimoiy maqbul shaklda tashkil etish, turli vaziyatlarda ijodiy harakat qila olish, muloqot jarayonidagi ijodiy yondashish kabilarni ham taqozo etadi. Ushbu nuqtai nazardan, partisipativlikning mazmunini belgilashda ijodiylik xususiyatlarini ham e’tiborga olish lozim deb hisoblaymiz.


Partisipativlik tashkilotchilik boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish, birgalikda qarorlar qabul qilish kabi ma’nolardan tashqari pedagog va ta’lim oluvchilarning aniq maqsad asosidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish natijasida ijtimoiy maqbul o‘quv-bilish jarayonlariga erishishni ham nazarda tutadi. Ushbu nuqtai nazardan, oliy ta’limda o‘quv jarayonining partisipativlikka yo‘naltirilganligi, ta’lim subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning chuqurlashishi va mazmunan kengayishiga, yaxlit ta’lim jarayonining qulayligining ta’minlanishiga, ishtirokchilarining samarali birgalikdagi o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga va muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda pedagogik jamoaga ta’sir ko‘rsata olish bilan bog‘liq imkoniyatlardan samarali foydalanishga imkon beradi deb hisoblaymiz va ushbu jarayon bevosita talaba shaxsini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Ilmiy-nazariy tahlillarga asoslangan holda “partisipativ”, “partisipativ kompetentlik” tushunchalari asosan boshqaruv sohasida keng o‘rganilgan bo‘lib pedagogik jarayon, ta’limiy-tarbiyaviy munosabatlar, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash kontekstida nisbatan kam qo‘llanilgan degan xulosaga kelindi. Shuningdek, mazkur tushunchalarga berilgan ta’riflarning semantik jihatdan turli mazmunni ifodalashi, bugungi kunda yakdil ta’rifning mavjud emasligi tadqiqot jarayonida kutilmagan vaziyat va noaniqliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu nuqtai nazardan “partisipativ kompetentlik” tushunchasiga mualliflik ta’rifini berishni joiz deb hisoblaymiz.

Mazkur tahlillarga asoslangan holda tadqiqot ishimiz doirasida “partisipativ kompetentlik” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: *partisipativ kompetentlik shaxsning motiv va ehtiyojlarning mohiyatini anglagan holda muloqot jarayonida boshqalarni individual, o‘ziga xos shaxs sifatida hissiy idrok etish, ijobiy shaxsiy xususiyatlarini ta’kidlash, muloqot jarayonida tinglash va uning nuqtai nazarini tushuna olish, o‘zaro tenglik asosida samarali birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishdan iborat bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining perseptiv, kommunikativ, interaktiv, ijodiy qobiliyatlari hamda shaxsiy integral sifatlari majmuidir.*

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish mazmunining kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan o‘rni aniqlash, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonining pedagogik liderlik, reflektiv pozitsiya, hamkorlik pedagogikasi bilan bog‘liqlik jihatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish pedagogik liderlik, reflektiv pozitsiya, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, mazkur jarayon tuzulmasining motivatsion, mazmunli-faoliyatli, shaxsiy-kommunikativ va reflektiv-baholovchi komponentlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning tuzilmasi

Partisipativ kompetentlikning **motivatsion komponenti** o‘quv faoliyatiga qiziqish va motivatsion-qadriyatli munosabatning mavjudligini ifodalaydi. **Mazmunli-faoliyatli komponent** axborotli va predmetli-faoliyatli kompetensiyalar hamda partisipativ kompetentlik mazmuniga doir kasbiy ahamiyatli bilimlarni o‘z ichiga oladi. **Shaxsiy-kommunikativ komponent** bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari majmuni o‘zida ifoda etadi. **Refleksiv-baholovchi komponent** faoliyatni birgalikda rejalashtirish va tashkil etish jarayonida tanqidiy introspektivlikka amal qilish, amalga oshirilgan partisipativ faoliyatning retrospektiv tahlilini amalga oshirishni talab etadi.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning imkoniyatlari, bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modeli va bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Tadqiqot ishimiz doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga pedagogik va psixologik fanlarning ta‘sirini aniqlash maqsadida pedagogika oliy ta‘lim muassasalari Pedagogika va psixologiya fakulteti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan fanlarning o‘quv reja, fan dasturi hamda ishchi dasturlari tahlil etildi va mazkur fanlarning partisipativ kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi.

Pedagogik-psixologik fanlarning bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini hisobga olish tizim tavsifiga ega

bo'lib mazkur rivojlantiruvchi jarayonni amalga oshirishga doir model va pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonining umumiy metodologik asosini mazkur muammoni o'zaro aloqador tarkibiy qismlardan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida ifodalash imkonini beruvchi tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv partisipativ kompetentlikni rivojlantirish mazmunida bir butunlik kasb etgan motivatsion, mazmunli-faoliyatli, shaxsiy-kommunikativ, reflektiv-baholovchi tarkibiy qismlar hamda ularni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shakl, metod, vositalarning o'zaro aloqadorligini taqozo etuvchi pedagogik tizim sifatida aks etadi.

Tadqiqot uchun metodologik asos sifatida partisipativ, faoliyatli, aksiologik, madaniy, shaxsga yo'naltirilgan va reflektiv yondashuvlar belgilab olindi.

Pedagogik-psixologik va boshqaruvga oid adabiyotlarni o'rganish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga samarali ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarni quyidagicha belgilab oldik:

1. Ta'lim muassasasidan tashqari muhit – bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda kasbiy-pedagogik tayyorlov tizimiga nisbatan tashqi omil hisoblanib, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy institutlar, sharoitlar va munosabatlarning yig'indisini aks ettiradi.

V.V.Danilovning tadqiqotlarida ta'lim muassasasidan tashqari muhitning quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligiga e'tibor qaratiladi: global ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar; mahalliy ijtimoiy va ta'limiy muassasalar – klublar, seksiyalar va boshqalar – va ularning faoliyatida bo'lajak o'qituvchilarning ishtiroki); universitetdan tashqari muhitda bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarining tabiati.

Oliy ta'limdan tashqari muhitidan bo'lajak o'qituvchilarning faolligi, hissiy-irodaviy xususiyatlari, motivatsion ehtiyojli sohasi kabilar bilan belgilanib harakatchanlik, beqarorlik, nazorat qilishning past darajasi kabilar bilan xususiyatlandi. Biroq, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonidan tashqari vaqtlarini, amalga oshiradigan faoliyatlari hamda shaxslararo munosabatlari mazmunini qamrab olganligi bois, ushbu omilni e'tiborga olish mazkur jarayonga ijobiy ta'sir etishi mumkin degan, xulosaga kelindi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan xususiyatlanuvchi navbatdagi omil – ta'lim muhiti hisoblanadi. Ta'lim muhiti birgalikdagi faoliyatda bo'lajak o'qituvchi shaxsida ijtimoiy maqbul tajribalarni tarkib toptirish va zarur fazilatlarni shakllantirish uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar majmuini ifodalaydi.

Mutaxassislikka doir ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarda umumiy pedagogik va mutaxassislikka doir maxsus bilimlarni shakllantirib borishi, ijtimoiy maqbul kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi, ta'lim oluvchilar jamoasini turli xil ta'limiy faoliyat shakllariga jalb qilish orqali ularning faolligini ta'minlashi hamda talabalarning tashabbusi qiziqishlari asoslangan pedagogik vazifalarini bajarishdagi o'zaro hamkorligini tashkil etishi kabilar

mazkur omilning partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligini o‘zida aks ettiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi, pedagogik jarayon ishtirokchilari va ularning o‘zaro birgalikdagi xatti-harakati, hamkorlikdagi faoliyatning pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirish mazmunining bosqichlari, shaxsiy mobillikning komponentlari, rivojlantirish jarayonining shakl, metod, vositalari, tamoyillari, nazariy-metodologik asoslari hamda natijalarni baholashning ijtimoiy maqbul shakllarini modellashtirishni talab etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modeli belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlaydigan uchta blokdan iborat tarzda loyihalandi (2-rasmga qarang).


Motivatsion-jarayonli blok o‘zida ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalarni aks ettirdi. Ijtimoiy buyurtma innovatsion ta‘lim sharoitida partisipativ kompetentlikka ega bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish etib belgilab olindi. Partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida jarayonga samarali ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olgan holda maqsadni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilab olindi: bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ faoliyatni tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga doir bilim va mahoratni tarkib toptirish; pedagogik-psixologik fanlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish; bo‘lajak o‘qituvchilarda ma‘naviy-axloqiy, umummadaniy kompetensiyalarni tarkib toptirish va partisipativ kompetentlikka doir shaxs fazilatlarini rivojlantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Faoliyatli blok bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga doir belgilangan faoliyatni tashkil etish mazmunini o‘zida ifodalaydi. Mazkur blok partisipativ kompetentlikning motivatsion, mazmunli-faoliyatli, shaxsiy-kommunikativ reflektiv-baholovchi komponentlari, shuningdek, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonining pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur shart-sharoitlar mazmunini sinovdan o‘tkazish, tekshirish bo‘lajak o‘qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tajribaviy faoliyat davomida amalga oshirildi.

Shuningdek, faoliyatli blok partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga oid faoliyatni amalga oshirishda tayaniladigan quyidagi tamoyillarni ham o‘zida aks ettiradi:

Insonparvarlik tamoyili. Ta‘lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirishda subyekt-subyekt munosabatlarini mazmunini ifodalaydi. Ushbu tamoyil partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini hurmat qilish, har bir shaxsining qadr-qimmatini anglash, individualliklarini hisobga olish va pedagogik qadriyatlarni subyektivlashtirishni aks ettiradi. Mazkur tamoyilni amalga oshirishning muhim sharti bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy volontyorlik faoliyatiga ixtiyoriy ravishda jalb etish hisoblanadi;



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modeli

Madaniy an'analarni hisobga olish tamoyili. Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida madaniy me'yorlarni hisobga olishni anglatadi. Mazkur tamoyil bo'lajak o'qituvchi shaxsining boshqalar bilan munosabatlarda "madaniyatli shaxs" rolini namoyon etishi, ijtimoiy faoliyatda turli dunyoqarashga ega insonlarni tushuna olishi, muloqot jarayonini axloqiy-ma'naviy talablarga rioya qilgan holda o'zaro teng huquqli ishtirokchilar sifatida amalga oshirishda namoyon bo'ladi;

Shaxs va ta'limga qadriyatli munosabatda bo'lish tamoyili. Bo'lajak o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tenglik tamoyili bo'lib, shaxsga hurmatni aks ettiruvchi, uning ijtimoiy, hissiy-irodaviy va boshqa tomonlarini qabul qilish, uning xulq-atvori mohiyatini pedagogik talqin qilishni ifodalaydi. Tarbiyaning ijtimoiy sharoitga moslik tamoyili partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va vositalarini mazkur jarayon bilan bog'liq ijtimoiy vaziyat mos ravishda tanlashni talab etadi. Ushbu tamoyilga muvofiq, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni mazkur jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyat tomonidan belgilangan talablar, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarga muvofiq amalga oshiriladi;

Dialogizm tamoyili. Shaxsning ijtimoiylashuvi, faolligi, shaxslararo munosabatlar va kommunikativligi orqali namoyon bo'lishini e'tirof etadi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarning partisipativ kompetentligini rivojlantirish tizimi o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, tashkil etish va diagnostika qilish jarayonida zarur bo'g'in bo'lgan muloqot, shaxslararo muloqot jarayoni, uning mazmuni va samaradorligiga doir kommunikativ ko'nikmalarni tarkib toptirishni nazarda tutadi;

Paritetlik (tenglik) tamoyili. Ushbu tamoyil pedagogik jarayonda qaror qabul qilish zaruriyati yuzaga kelganida ta'lim jarayoni qatnashchilarining tengligi xususiyatiga asoslanadi. Qaror qabul qilish ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatiladigan muammoli vaziyatlarni birgalikda boshqarish va o'zini o'zi boshqarish orqali hal qilishga e'tiborni qaratadi va mazkur xatti-harakatlar majmuasidan foydalanish orqali maqsadga erishish sifatida talqin qilinadi. Ushbu tamoyil partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga oid mashg'ulotlarda o'zaro hurmat, fikrlar plyuralizmi, moslashuvchanlik va bir-birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi shaxslarning birgalikda izlanishli, muloqotli, tanlov va qaror qabul qilishini o'z ichiga oladi.

Natijaviy blok o'zida bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini aks ettiradi. Mezonlarni belgilashda ularning partisipativ kompetentlikning komponentlari bilan aynan mos bo'lishi hisobga olindi. Mezonlarga mos ko'rsatkichlarni aniqlashtirishda mazkur jarayonni tekshirish imkoniyatining mavjudligi, tashxis etish vositalarining ishonchliligi, ulardan foydalanishning qulayligi kabilar hisobga olindi. Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikning rivojlanganligini baholashning uch (past, o'rta, yuqori) darajasi aniqlashtirildi.

Mazkur bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish modelining bloklari ketma-ketlik xususiyatiga ega, o'zaro bir-biriga aloqador va

yaxlit jarayonni ifodalaydi. Model bloklarining har biri o'zining maxsus belgilangan mazmuni va didaktik-metodik o'ziga xosliklariga ega.

Tadqiqotning evristik tavsifga egaligi, partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonni kelgusida o'rganish lozimligi talab etadi, ushbu nuqtai nazardan mazkur model umumiy pedagogik vazifaning ma'lum bir qismini hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelning yana bir muhim jihati partisipativ faoliyatni amalga oshirish mazmunini anglash orqali partisipativ kompetentlikka oid bilim, ko'nikmalarni egallashdan shaxslararo munosabatlarni tenglik asosida tashkil etish, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish, o'zaro hamkorlikka erishish, ijtimoiy faollik va refleksiv-ijodiylikni tarkib toptirishga doir qadriyatli munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lajak o'qituvchi shaxsini tayyorlashgacha bo'lgan jarayonni qamrab olgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon tizim tavsifiga ega ekanligi bois uni amalga oshirish pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi.

Partisipativ kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan jarayonga ijobiy ta'sir etuvchi, taklif etilgan tadqiqot modelini to'la amalga oshirish imkonini beruvchi rivojlantiruvchi jarayonining mazmunli tarkibiy qismlari bilan aloqadorlikka ega muhit imkoniyatlari majmui anglashiladi.

Sohaga doir adabiyotlarni o'rganish va ilmiy izlanishlarni tahlil qilish natijasida, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar belgilab olindi:

- 1) bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-perseptiv ko'nikmalarni tarkib toptirish;
- 2) bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatga kirishish madaniyatini tarkib toptirish;
- 3) bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy izlanuvchan faoliyatga jalb etish.

Uchinchi pedagogik shart sifatida bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy izlanuvchan faoliyatga jalb etishga e'tibor qaratildi. Mazkur jarayon talabalarni loyihaviy faoliyatga jalb etish hamda ijodiy yo'natirilgan rolli ishbilarmonlik o'yinini o'tkazish shakllarida amalga oshirildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni loyihaviy faoliyatga jalb etish auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar shaklida amalga oshirildi. Auditoriyada amalga oshiriladigan loyihaviy faoliyat uchun "Pedagogik mahorat" moduli bo'yicha o'quv loyihalarini ishlab chiqish vazifasi, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar doirasida esa, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish maqsad qilib qo'yildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirishda shaxs sifatlarini tarkib toptirish, shaxslararo munosabatlarda birlik va tenglik asosida birgalikdagi faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida rolli o'yinli mashg'ulotlar amalga oshirildi.

Partisipativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida belgilab olingan mazkur pedagogik shart-sharoitlar: bo'lajak

o'qituvchilarda shaxslararo munosabatga kirishish madaniyatini tarkib toptirish; bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-perseptiv ko'nikmalarni tarkib toptirish; bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy izlanuvchan faoliyatga jalb etish rivojlantirish jarayoni bilan bevosita aloqadorlikka ega bo'lib bir birini to'ldiruvchi xususiyat kasb etadi.

Partisipativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shartlari taklif etilgan tadqiqot modeli bloklari va tarkibiy qismlarini amaliyotga tatbiq etishda to'ldiruvchi, o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi maxsus ijtimoiy muhit vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda partisipativ kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili yoritib berilgan.

